XALQ DEPUTATLARI YANGIBOZOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-16-141-12-178-K/25 Yangibozor tumani

Yangibozor tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo‘shma xatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo‘shma xatlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mahallalar iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2026-yil 1-yanvardan yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1, 2-ilovalarga muvofiq;

-suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga muvofiq;

-noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bunda yer solig‘ining amaldagi stavkalari 1,2 baravarga indeksatsiya qilinishi inobatga olinsin hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari keyingi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozi doirasidan kelib chiqqan holda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4. Ushbu qaror “Yangibozor ko‘zgusi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Xalq deputatlari Yangibozor tumani Kengashining 2024-yil 28-dekabrdagi VII-4-042-12-178-K/24-sonli qarori va 1, 2-ilovalari 2026-yil 1-yanvar kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Atajanov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **JUMANIYAZOV RUSLAN RUSTAMOVICH**

Xalq deputatlari Yangibozor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-141-12-178-K/25 -son qaror-
iga
1-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida **mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun** belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun 1 (bir) kv.m uchun so‘mda
1	Tozado‘rman MFY	1,17	494,02
2	Hayvat MFY	1,17	494,02
3	Xalqobod MFY	1,17	494,02
4	Hamid Olimjon MFY	1,17	494,02
5	Cho‘bolonchi MFY	1,17	494,02
6	Yuqori Bashqir MFY	1,17	494,02
7	Shoirlar MFY	1,17	494,02
8	Yangiobod MFY	1,17	494,02
9	Do‘stlik MFY	1,28	540,47
10	Pahlavon Mahmud MFY	1,17	494,02
11	Navro‘z MFY	1,28	540,47
12	Shirinlar MFY	1,17	494,02
13	Ochaqal‘a MFY	1,17	494,02
14	Istiqlol MFY	1,17	494,02
15	Navbahor MFY	1,17	494,02
16	Mang‘itlar MFY	1,17	494,02
17	Qoratepa MFY	1,17	494,02
18	Qiyot MFY	1,17	494,02
19	Katli MFY	1,17	494,02
20	Qadriyat MFY	1,17	494,02
21	Iftixor MFY	1,17	494,02

22	Jayhun MFY	1,17	494,02
23	Guliston MFY	1,17	494,02
24	Bo‘ston MFY	1,17	494,02
25	Bog‘olon MFY	1,17	494,02
26	Barhayot MFY	1,17	494,02
27	Mingbog‘olon MFY	1,17	494,02
28	Oltinko‘l MFY	1,17	494,02
29	Yangiyop MFY	1,28	540,47

Xalq deputatlari Yangibozor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-141-12-178-K/25 -son qaror-
iga
2-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida **mutlaq miqdorga 1 gektarga** belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun 1 (bir) gektar uchun so‘mda
1	Tozado‘rman MFY	0,89	42 264 320
2	Hayvat MFY	0,89	42 264 320
3	Xalqobod MFY	0,89	42 264 320
4	Hamid Olimjon MFY	0,89	42 264 320
5	Cho‘bolonchi MFY	0,89	42 264 320
6	Yuqori Bashqir MFY	0,89	42 264 320
7	Shoirlar MFY	0,89	42 264 320
8	Yangiobod MFY	0,89	42 264 320
9	Do‘stlik MFY	1,12	53 186 560
10	Pahlavon Mahmud MFY	0,89	42 264 320
11	Navro‘z MFY	1,12	53 186 560
12	Shirinlar MFY	0,89	42 264 320
13	Ochaqal‘a MFY	0,89	42 264 320
14	Istiqlol MFY	0,89	42 264 320
15	Navbahor MFY	0,89	42 264 320
16	Mang‘itlar MFY	0,89	42 264 320
17	Qoratepa MFY	0,89	42 264 320
18	Qiyot MFY	0,89	42 264 320
19	Katli MFY	0,89	42 264 320
20	Qadriyat MFY	0,89	42 264 320
21	Iftixor MFY	0,89	42 264 320
22	Jayhun MFY	0,89	42 264 320
23	Guliston MFY	0,89	42 264 320

24	Bo‘ston MFY	0,89	42 264 320
25	Bog‘olon MFY	0,89	42 264 320
26	Barhayot MFY	0,89	42 264 320
27	Mingbog‘olon MFY	0,89	42 264 320
28	Oltinko‘l MFY	0,89	42 264 320
29	Yangiyop MFY	1,12	53 186 560

Xalq deputatlari Yangibozor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-141-12-178-K/25 -son
qaroriga
3-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq xo‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman (shahar)lar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek, YTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Yangibozor tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.0	1.0	1.2	1.2

Xalq deputatlari Yangibozor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-141-12-178-K/25 -son
qaroriga
4-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	Tuman (shahar)lar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezakt oshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag'al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Yangibozor tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2